



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

10/2023

E-ISSN 2181-1466






9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



10/2023

“NAVOIY GULSHANI”		
Sayliyeva Z.R.	G‘urbat ahlin bayoni	232
Иботова М.О.	Карими хилқат ичинда макорими ахлоқ...	236
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Paluaniyazov B.Y.	Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashning mafkuraviy-siyosiy jihatlar	238
Rajabov Sh.Sh.	Estetik ehtiyojlarning dizayn va kibermarketing sohasidagi transformatsiyasi	243
Иномов А.С.	Ўзбекистон ички ишлар органларида маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш истиқболлари	249
Мирзатиллаев Ж.Ў.	Жиноят процессида халқаро ҳамкорликнинг моҳияти	253
PEDAGOGIKA *** PEDAGOGICS *** ПЕДАГОГИКА		
Xalilov T.	Masofaviy ta’lim: tabiati va muhimligi	258
Yakubova F.Y.	Pedagogical aspects of developing general competence of students in the conditions of innovative education	263
Hajiyeva F.	Ways to develop intellectual skills in students	268
Baumenova K.	Pisa tadqiqotida kreativ fikrlash: samarali yechimlar va yutuqlar (o‘zbek tili misolida)	277
Sayidova N.S., Avezov A.A., Ostonova N.X.	Ispring quizmakerda test sinovlari o‘tkazishning ahamiyati	282
Yadgarova L.Dj., Ergasheva D.B.	Axborot texnologiyalarining matematik paketlaridan matematika fanini o‘qitishda foydalanish imkoniyatlari	291
Yulbarsova X.A.	Ishbilarmonlik o‘yinlari orqali bo‘lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish	296
IQTISODIYOT *** ECONOMICS *** ЭКОНОМИКА		
Narzullayeva F.S.	Iqtisodiy masalalarda matematik modellashtirishni qo‘llash	301
Жураев Ф.Д., Махматкулов Г.Х.	Критерии выбора трендовых моделей при среднесрочном прогнозировании производственных мощностей малых предприятий	305
Rahimov A.M.	Mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalarini faoliyatini ekonometrik modellashtirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlar	311
Ashurov Sh.R.	O‘zbekistonda soliq ma’muriyatchiligini rivojlantirishda Yevropa davlatlari tajribasining ta’siri	316

ISPRING QUIZMAKERDA TEST SINOVLARI O'TKAZISHNING AHAMIYATI

Sayidova Nazokat Sayfullayevna,
Buxoro davlat universiteti Axborot tizimlari
va raqamli texnologiyala kafedراس dotsenti
n.s.saidova@buxdu.uz

Avezov Abdumalik Abduxoliqovich,
Buxoro davlat universiteti Axborot tizimlari
va raqamli texnologiyala kafedراس o'qituvchisi
a_a_avezov@buxdu.uz

Ostonova Nafisa Xikmatovna,
Buxoro davlat universiteti Axborot tizimlari
va raqamli texnologiyalarkafedراس magistranti,
IIV Buxoro akademik litsey o'qituvchisi
zohirshoh1703@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlari, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimining malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari, professional ta'lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, umumiy o'rta maktab o'qituvchi, o'quvchi hamda tinglovchi va mustaqil o'rganuvchilar uchun Ispring QuizMaker dasturi orqali 11 xildagi testlar tuzish va test sinovlarini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar, o'quvchilar o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini baholashning zamonaviy dasturiy vositalaridan foydalanish, turli fanlardan testlarni tuzish metodikasi, iSpring QuizMaker dasturida test yaratish usullari haqida ma'lumot berilgan.

Ispring QuizMaker dasturi yordamida testlar yaratish, ularni dars jarayonida qo'llash darslarning samaradorligini oshirishi, o'quvchi va tinglovchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirishi, ularning mantiqiy fikrlashini faollashtirishi, bilishga intilishi va ijobiy qobiliyati rivojlantirishi, o'tilgan mavzuni o'zlashtirish darajasini yuqori bo'lishi, bilishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishi, hamda ularni ilmiy izlanishga yo'naltirishi batafsil yoritilgan. Bu esa test tuzuvchilarni zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar va dasturlardan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishda imkon beradi.

Kalit so'zlar: Ispring Suite, PowerPoint, Ispring QuizMaker, Flash. elektron test, didaktik, Ispring Kinetics, Ispring Pro, interaktiv, Windows, sinxron, Publish, LMS, SCORM, ActionScript, HaoZip. litsenziya, O'rnatish, so'zlar banki, ko'p tanlovli, innovatsion texnologiya.

ВАЖНОСТЬ ПРОВЕДЕНИЯ ТЕСТОВ В ISPRING QUIZMAKER

Аннотация. В данной статье высшим учебным заведениям, курсам повышения квалификации и переподготовки кадров системы высшего и среднего специального образования, профессиональным учебным заведениям, академическим лицам, профессиональным колледжам, учителям общеобразовательных школ, общеобразовательным школам Рекомендации по созданию 11 видов тестов и проведению тестов для учащихся и слушателей и самостоятельных учащихся через программу Ispring QuizMaker, используя современные программные средства оценки полученных знаний и умений учащихся, методы создания тестов по различным предметам, предоставляет информацию о том, как создать тест в iSpring QuizMaker.

Создание тестов с помощью программы Ispring QuizMaker, использование их в ходе урока повышает эффективность уроков, повышает интерес учащихся и слушателей к уроку, активизирует их логическое мышление, развивает желание познавать и развивает положительные навыки, а уровень владения предметом высокий, чтобы развивать у них интерес к знаниям и направлять их на научные исследования, подробно объясняется. Это позволяет тестирующим развивать компетенции в использовании современных инновационных педагогических технологий и программ.

Ключевые слова: Ispring Suite, PowerPoint, Ispring QuizMaker, Flash. электронный тест, дидактический, Ispring Kinetics, Ispring Pro, интерактивный, Windows, синхронный, Публикация, LMS,

THE IMPORTANCE OF TESTING IN ISPRING QUIZMAKER

Abstract. *In this article, higher educational institutions, advanced training and retraining courses for personnel in the system of higher and secondary specialized education, vocational educational institutions, academic lyceums, vocational colleges, teachers of secondary schools, secondary schools Recommendations for creating 11 types of tests and conducting tests for students and listeners and independent students through the Ispring QuizMaker program, using modern software tools for assessing the acquired knowledge and skills of students, methods for creating tests in various subjects, provides information on how to create a test in iSpring QuizMaker.*

Creating tests using the Ispring QuizMaker program, using them during the lesson increases the effectiveness of lessons, increases the interest of students and listeners in the lesson, activates their logical thinking, develops a desire to learn and develops positive skills, and the level of subject knowledge is high to develop their interest in knowledge and directing it towards scientific research is explained in detail. This allows testers to develop competencies in the use of modern innovative pedagogical technologies and programs.

Key words: *Ispring Suite, PowerPoint, Ispring QuizMaker, Flash. electronic test, didactic, Ispring Kinetics, Ispring Pro, interactive, Windows, synchronous, Publishing, LMS, SCORM, ActionScript, HaoZip. License, Installation, word bank, multiple choice, innovative technologies.*

Kirish. Dunyodagi ko‘p mamlakatlarning taraqqiyot darajasi mezonlaridan biri - bu ta‘limning nechog‘lik rivojlanganligi, yangi innovatsion texnologiyalarni ta‘lim olish jarayonida qo‘llanilishi bilan o‘lchanishi bejiz emas. Qaysi mamlakatda ta‘lim davlat tomonidan har tomonlama qo‘llab - quvvatlansa, o‘sha mamlakatning rivojlangan mamlakatga aylanishi uchun mustahkam poydevor shakllanadi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etishning muhim shartlaridan biri ham ularning zamonaviy ta‘lim tizimini nechog‘lik rivojlantira olganligiga bog‘liq ekanligi bejiz emas. Zero, ta‘lim nafaqat zamonaviy yangi innovatsion texnologiyalarning, balki fuqarolik jamiyati qurishning ham eng asosiy resurs - manbalaridan biri hisoblanadi. Muhimi, ta‘lim alohida olingan insonning rivojlanishiga, uning har tomonlama barkamol bo‘lishiga qaratilgan bo‘lib, uning o‘zini-o‘zi anglashida asosiy o‘rin tutadi. Shu sababli ham har bir davlatning rivojlanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsata oladigan omillardan biri ta‘lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish, uni islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri deb qarash taomilga kirgani bejiz emas.

O‘zbekiston Respublikasida, ya‘ni mamlakatimizda ta‘lim islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davr talablaridan va islohotning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda, ta‘lim muassasalari talabalarida muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish, kerakli ma‘lumotlarni izlab topish va tahlil qilishga o‘rgatish hamda shu asosda mas‘uliyatli yechimlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish vazifa qilib qo‘yilgan. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan ta‘lim-tarbiya sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ta‘lim standartlari va dasturlarini takomillashtirish, maktabgacha ta‘lim, maktablar, litseylar, kollejlarni, oliy o‘quv yurtlarining moddiy texnik bazasini yanada mustahkamlash masalalariga katta e‘tibor berib kelinmoqda.

Zamonaviy ta‘limning bugungi vazifasi kun sayin oshib borayotgan axborot-ta‘lim muhiti sharoitida bilim oluvchilarga axborotlar oqimidan samarali foydalanishni o‘rgatish va ularga mustaqil ishlash imkoniyatini yaratib berishdir. Ayni vaqtda davlatimizda ta‘limga e‘tibor kuchaytirilmoqda. Bu haqda Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning: “Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” degan so‘zlari buning yaqqol isbotidir.

Hurmatli Sh.M.Mirziyoyev Prezidentimiz tomonidan yoshlarga bo‘lgan e‘tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash borasida ilgari surilgan “beshta tashabbus” ham ta‘limga bo‘lgan e‘tibordan darak beradi.

Ayniqsa, tashabbusning 3-yoʻnalishi yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish koʻnikmalarini shakllantirish yoʻnalishida aholi va yoshlar oʻrtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga alohida eʼtibor qaratish koʻzda tutilgan.

Jonajon yurtimiz, mustaqil Oʻzbekistonimiz, buyuk davlatimiz va jamiyatimizning bugungi kuni ayniqsa, kelajagi uchun gʻoyat muhim boʻlgan sogʻlom va barkamol avlodni tarbiyalash vazifasini oʻz oldimizga maqsad qilib qoʻyar ekanmiz, avvalambor, biz yashayotgan XXI – asr intellektual boylik, yuksak bilim va salohiyat talab etiladigan, aynan shu qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etadigan asr, degan hayotiy haqiqat kelib chiqadi.

Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir” degan soʻzlari bizning doimiy eʼtibor markazimizda turishi zarur.

Hozirgi vaqtda jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yosh avlodning bilim darajasini jahon andozalari talablariga javob beradigan, fan-texnika yangiliklaridan xabardor, mustaqil fikrlay oladigan, hayotga dadillik bilan kirisha oladigan, tadbirkor, maʼnaviy jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazish, mustaqil Oʻzbekistonimizda taʼlim standartlari asosida taʼlim -tarbiya jarayonini kompetensiyaviy qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda oʻqituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida eʼtibor berilmoqda.

Har tomonlama sogʻlom, har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish taʼlim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, yosh avlodni oʻqitish va tarbiyalash ishiga boʻlgan munosabatiga bogʻliqdir. Oʻqituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirigʻini bajaradi. Shunday ekan, har tomonlama yetuk mutaxassislarini tayyorlashda oʻqituvchi muayyan ijtimoiy – siyosiy, pedagogik talablarga javob berishi lozim. Oʻqituvchi mustaqillik gʻoyasiga etiqodli, har tomonlama rivojlangan, ilmiy tafakkuri, kasbiga tegishli maʼlumoti bor, yaʼni oʻz fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik, uslubiy bilim va malakani egallagan boʻlishi hamda turli pedagogik vaziyatlarni tezda aniqlay bilishi, oʻrganishi va baholay olishi zarur.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, dars jarayonlarida dars oʻtishning yangi pedagogik texnologiyalariga asoslangan holda interfaol usulda darslarni tashkil qilish, dars mobaynida oʻquvchilar uchun qiziqarli boʻlgan kompyuter dasturlariga asoslangan multimediyali va prezentatsion, hamda pedagogik vositalardan foydalanib darslarni tashkil etish zarur.

Bugungi kunlarda sodir boʻlayotgan innovatsion jarayonlarda taʼlim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni oʻzlashtirish va oʻzlashtirgan bilimlarni oʻzlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, taʼlim muassasalarining oʻquv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy oʻqitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning oʻrni va ahamiyati beqiyosdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda oʻqituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, oʻzgarishlar kiritish boʻlib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan foydalaniladi.

Tadqiqot metodi. Taʼlimni kompyuterlashtirish bilan bogʻliq muammolarni tadqiq qilishda koʻplab yutuqlarga erishilganligini qayd qilgan holda bu sohada yechimini kutayotgan masalalari koʻp ekanligini ham taʼkidlash joiz. Chunonchi, taʼlimni kompyuterlashtirishga bir necha yil oldin kirishilgan va qator ishlar qilingan boʻlsa-da, koʻpchilik uchun bu taʼlimni tashkil qilishning yangi, noanʼanaviy shakli sifatida taassurot qoldirib kelmoqda. Albatta, kompyuter taʼlimi sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega, buning uchun sifatli pedagogik dasturlar va mukammal uslubiyotdan foydalanish lozim. Taʼlim jarayonida foydalanishga moʻljallangan koʻplab elektron oʻquv materiallari yaratilganki, unga elektron darslik, elektron oʻquv qoʻllanma, elektron test, oʻrgatuvchi dastur vositalari kabilarni misol qilib koʻrsatish mumkin.

Turli sohada oʻz faoliyatini olib borayotgan olimlarning oʻtkazgan tajribalarining tahlillariga koʻra taʼlim jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, yaʼni talaba koʻrib, eshitib va bajarib koʻrish natijasida oʻzlashtirish koʻrsatkichi 90% ga ortgani aniqlangan. Hozirda dasturiy vositalar doimiy rivojlanib bormoqda va yanada yangi, imkoniyatlari kengaytirilgan dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ana shunday dasturlardan biri Ispring Suite dasturidir. Ushbu dastur yordamida juda qulay taqdimotlar yaratish mumkin. Dasturni oʻrganish qulayligi shundaki, dastur PowerPoint negizida ishlaydi. Dastur imkoniyatlaridan yana biri testlar tuzishdir. Testlarni turli shakllarda tuzish mumkindir. Taqdimot tayyorlash jarayonida ovozlarni yozish, videotasvir yozib olish ham mumkin. Tayyor taqdimotlarni flash holatga oʻtkazish imkoniyati mavjud. Yuqoridagilardan ushbu dastur yordamida tez va sifatli elektron ishlanmalar, elektron testlar, turli taqdimotlar yaratish mumkinligi koʻrinib turibdi.

Barcha ta'lim muassasalarida turli fanlarni o'qitishda o'quv vositalaridan, o'quvchilar bilimini sinash va mustahkamlash uchun elektron testlardan foydalanish, elektron testlar tuzish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni o'rganish, didaktik materiallardan foydalanib ta'lim jarayoniga tatbiq etishning o'ziga xos xususiyatlarini tatbiq qilish va qo'llash muhim hisoblanadi.

XXI asr fan texnika ta'lim, meditsina, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda katta o'zgarishlar olib kirdi. Hayotimizni barcha sohalariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilinishi, fan texnika sohasidagi yangiliklarni sekund sayin yaratilishi, dunyoda axborotlarni chegara bilmay qolganligi insoniyat ongini yana bir daraja ko'tarilib rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. E'tibor bersak, axborot asri deb atalmish ushbu asrda tug'ilayotgan farzandlarimiz aql-idrok jihatdan ustunroq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bunday yoshlarga shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda ta'lim-tarbiya berish, ularni mustaqil fikrlaydigan, o'z fikrini mustaqil ayta oladigan qilib tarbiyalash, ularni shaxsini rivojlantirish uchun ta'lim sohasida ham o'zgarishlarni talab qilmoqda.

An'anaviy o'qitishdan zamonaviy o'qitish, ya'ni yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitishning yangi axborot texnologiyalari asosida o'qitishga o'tish zamon talabidir. O'quv jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish natijasida ta'lim maqsadlari belgilanadi yoki loyihalanganadi, kutilayotgan natija-ijobiy sifat o'zgarishi kafolatlanadi, o'quv jarayonining takrorlanuvchi sikli yaratiladi.

Amaliyotning ko'rsatishicha, o'quv maqsadlarining, erishiladigan natijasi aniq va osonroq ifodalaydigan shakllardan biri - test topshiriqlaridir. Testlarni kompyuter yordamida avtomatlashtirilgan holda o'tkazish uning asosiy afzalliklaridandir. Kompyuter yordamida onlayn taqdimotlar va elektron o'quv kurslarini yaratuvchi zamonaviy dasturlardan biri iSpring Suite dasturlar to'plamidir. iSpring Suite dasturlar paketiga iSpring Pro, iSpring QuizMaker, iSpring Kinetics jamlangan. Bu dasturlardan iSpring QuizMaker dasturi audio, video fayllar, tasvir va formulalar yordamida interaktiv testlar va anketalar yaratadi. iSpring dasturida tuzilgan testlar orqali o'quvchilarni fanlardan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalarini baholash mumkin. Maqolani yozishdan asosiy maqsadlarimizdan biri ham iSpring dasturida turli fanlardan fanidan testlar tuzish metodikasi haqida ma'lumotlar berish bo'lib hisoblanadi.

Natijalar. iSpring Suite – bu PowerPoint dasturida elektron o'quv kurslarini yaratuvchi professional vosita hisoblanadi. iSpring Suite dasturi yordamida foydalanuvchi bir nechta bosqichdagi o'quv kurslarini yaratishi va nashr qildirishi mumkin:

- a) Power Point - taqdimotlar bazasida o'quv kurslarini yaratish;
- b) Audio va video fayllarni birlashtirish;
- c) Interaktiv testlar yaratish;
- d) Interaktiv bloklar yaratish;
- e) Masofaviy ta'lim tizimi uchun ma'lumotlar tayyorlash.

iSpring Suite dasturi o'zida iSpring Pro, iSpring QuizMaker va iSpring Kinetics dasturlarini jamlagan. iSpring Suite dasturini uskunalari PowerPoint dasturining menyular satriga sozlanadi. iSpringning o'rnatilishi muvaffaqiyatli bajarilgandan so'ng, PowerPointga iSpring instrumental qatori qo'shiladi. iSpringning funksiyalaridan tayyorlangan fayli Flash formatga o'ziga xos playback (boshqarilish)ni yuzaga keltiradi. Audio va videolar bilan Flahda tayyorlangan fayl yaxshiroq bo'ladi. Eslatma, aytish kerakki iSpring Proga qo'shiladigan har bir ma'lumot Windows uchun o'ziga xos ahamiyatga ega.

iSpring Pro yordamida:

- Windowsda Flashni muomalaga chiqarish;
- Prezentatsiyani tadqiq etish;
- Window bilan bog'lanish;
- Windowni taqdim etish;
- Windowda audio yozish;
- Windowda video yozish;
- Windowda sinxron qilish;
- Windowga so'rovlar qo'yish;
- Windowni Flashga kiritish mumkin.

[Quick Publish] tugmasini bir marta bosish orqali yuqori darajadagi Flash movie o'rnatiladi. iSpring Quick Publishingning o'ziga xos xususiyatlaridan biri taqdim etiladigan prezentatsiyada ortiqcha o'zgarishlarga yo'l qo'ymaydi. iSpring Pro 180 dan ortiq effektlarga ega. Bu ko'rsatkich PowerPoint 2007 dagi barcha

effektlar kombinatsiyasidan iboratligi, ko‘plab harakatlarni o‘z ichiga olganligi hamda shu ko‘rsatkich bo‘yicha harakatlarni mukammallashtirganligi bilan tasvirlanadi.

iSpring Suite quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- taqdimot fayllarini bir necha (exe, swf, html) formatlarda konvertatsiyalash imkoniyati;
- taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish imkoniyati;
- taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko‘ra olish, taqdimotga “himoya belgi”si qo‘yish, taqdimotni faqat ruxsat etilgan domenlardagina “aylantirilishi”;

- video qo‘shish va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish;

- elektron test(nazorat)larini yaratish va natijalarini elektron pochtaga yoki masofaviy o‘qitish tizimiga (LMS) uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o‘rnatilgan (Quiz tugmachasi);

- masofaviy o‘qitish tizimida foydalanish uchun SCORM/AICC — mos keluvchi kurslarini yaratish;

- taqdimot dastur darajasida aylantirish uchun ActionScript API;

- videotasvirni yozish va uni taqdimot bilan sinxronlashtirish;

YouTube ga joylashtirilgan roliklarni taqdimot tarkibiga kiritish imkoniyati.

Elektron axborot ta‘lim resurslari ichida kiruvchi ma‘lumotnomalar va lug‘atlarni yaratish uchun iSpring Kinetics dasturini keltirish mumkin.

iSpring Kineticsning quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- biror-bir fan bo‘yicha elektron ko‘rinishdagi qulay bo‘lgan glossariy,

- ma‘lumotnoma yoki lug‘at yaratish;

- vaqt shkalasini yaratish;

- 3 o‘lchovli kitob yaratish;

- FAQ yaratish mumkin.

Elektron axborot ta‘lim resurslari ichida kiruvchi elektron nazorat turlarini yaratish uchun iSpring QuizMaker dasturini keltirish mumkin.

iSpring QuizMaker quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- tarmoqlangan testlar yaratish imkoniyati (adaptatsiyalashtirilgan testlarni yaratish) imkoniyati;

- ikki, uch, to‘rt yoki besh javobli yopiq test topshiriqlari, ulardan biri to‘g‘ri,

- ikkitasi haqiqatga yaqinroq turidagi topshiriqlari;


- bir necha to‘g‘ri javobli yopiq test topshiriqlari;

- ochiq test topshiriqlari;

- o‘xshashlikni aniqlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar;


- to‘g‘ri ketma-ketlikni aniqlashga mo‘ljallangan topshiriqlarni yaratish imkoniyatlar mavjud. Dasturni o‘rnatib bo‘lingandan so‘ng, sozlamalarga kerakli o‘zgartirishlar qilinadi.

Endi iSpring QuizMaker dasturida test yaratish texnologiyasi bilan tanishib chiqsak. iSpring QuizMaker dasturida savol yaratish uchun bizda o‘n to‘rt xil va bitta matn yozishni usulidan foydalanish chiqadi va ushbu testlarni tayyorlashni ko‘rib chiqamiz.




1-rasm. iSpring QuizMaker dasturida savollar turlari

1. **Верно/Неверно** - faqat 2 ta javobli to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblardan iborat savol turi: Ushbu testni rasm, ovoz, video formula yordamida yaratish mumkin.




2-rasm. iSpring QuizMaker dasturida Верно/Неверно savol turidan foydalanish

2. Один.выбор – bitta to‘g‘ri javobli, 2 va undan ortiq variantli javoblardan iborat savol turi: Ushbu testni rasm, ovoz, video formula yordamida yaratish mumkin. Javoblar variantlarini “**добавить**” tugmasi yordamida ko‘paytirish mumkin.




3-rasm. iSpring QuizMaker dasturida Один.выбор savol turidan foydalanish

3. Множ.выбор – bir va undan ortiq to‘g‘ri javobli, 2 va undan ortiq variantli javoblardan iborat savol turi: Ushbu testni rasm, ovoz, video formula yordamida yaratish mumkin. Javob variantlarini “**добавить**” tugmasi yordamida ko‘paytirish mumkin.




4-rasm. iSpring QuizMaker dasturida Множ.выбор savol turidan foydalanish

4. Ввод строки - bir va undan ortiq to'g'ri javobli va variantli, variantlarning barchasi to'g'ri javob bo'lib xizmat qiluvchi savol turi: Ushbu testni rasm, ovoz, video formula yordamida yaratish mumkin. Javob variantlarini “добавить” tugmasi yordamida ko'paytirish mumkin.




5-rasm. iSpring QuizMaker dasturida Ввод строки savol turidan foydalanish

5. Соответствие – Ushbu savol turi: moslikni birlashtiruvchi savol turi bo'lib 2 va undan ortiq variantli. Ushbu testni rasm, ovoz, video formula yordamida yaratish mumkin. Javob variantlarini “добавить” tugmasi yordamida ko'paytirish mumkin.




6-rasm. iSpring QuizMaker dasturida Соответствие savol turidan foydalanish

6. Порядок - Ushbu savol turi: Javoblarni ketma-ketlikda ifodalovchi savol turi bo'lib 3 va undan ortiq variantli. Ushbu testni rasm, ovoz, video formula yordamida yaratish mumkin. Javob variantlarini “добавить” tugmasi yordamida ko'paytirish mumkin.




7-rasm. iSpring QuizMaker dasturida Порядок savol turidan foydalanish

7. Пропуски - bir va undan ortiq to'g'ri javobli, variantlarning barchasi to'g'ri javob bo'lib xizmat qiluvchi savol turi: Ushbu testni rasm, ovoz, video formula yordamida yaratish mumkin. Javob variantlarini hamda katakchalarni ko'paytirish mumkin.




8-rasm. iSpring QuizMaker dasturida Пропуски savol turidan foydalanish

8. Влож.ответы – Ushbu savol turi, bitta savolga bir nechta savollarni o'z variantlari bilan ichiga oluvchi savol turi hisoblanadi. Ushbu testni rasm, ovoz, video formula yordamida yaratish mumkin. Javob variantlarini hamda katakchalarni ko'paytirish mumkin.




9-rasm. iSpring QuizMaker dasturida Влож.ответы savol turidan foydalanish

9. Активная область – Ushbu savol turi multimedia fayllarni biror qismini ajratib ko'rsatish uchun foydalaniladiga savol turidir.



10-rasm. iSpring QuizMaker dasturida Активная область savol turidan foydalanish

10. Банк слов – Ushbu savol turi, jummalarni to'g'ri joylashtirish uchun xizmat qiluvchi savol turi bo'lib xizmat qiladi.



11-rasm. iSpring QuizMaker dasturida Банк слов savol turidan foydalanish

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, turli fanlardan Ispring dasturi yordamida testlar yaratish va ularni dars jarayonlarida qo‘llash darslarning samaradorligini oshirishga olib keladi. Tinglovchi hamda o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, ularning mantiqiy fikrlashlari faollashadi, bilishga intilishi va ijobiy qobiliyati rivojlanadi, o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi, bilishga bo‘lgan qiziqishi rivojlanadi, darslikdan tashqari qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanish ko‘nikma va malakalari shakllanadi, tinglovchi, o‘quvchi hamda foydalanuvchilarni ilmiy izlanishga yo‘naltiradi.

Ispring QuizMaker dasturida turli fanlardan testlar kompleksini ishlab chiqish va uni oliy o‘quv yurtlari, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimining malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari, professional ta‘lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, umumiy o‘rta maktab o‘qituvchi, o‘quvchi hamda tinglovchilariga qo‘llash natijasida ularga bilim berish uchun elektron qo‘llanmalardan foydalanib, dars samaradorligini oshirishga erishish mumkinligini ko‘rib chiqdik Demak, o‘quvchilarga doimiy ravishda bilim berib borishda elektron testlar komplekslarini yaratish va ulardan o‘quv jarayonida foydalanish lozimligi, shuningdek testlar saviyasini yanada takomillashtirish va yangi loyihalarini yaratish bo‘yicha zarur bo‘lib hisoblanadi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, kelgusida bu ishlarimni davom ettirib, zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘quvchilarga bilim berish uchun albatta turli fanlar bo‘yicha elektron testlar, turli xil elektron sahifalar, elektron qo‘llanmalar, uslubiy ko‘rsatmalar yaratib, o‘quvchilarning bilimini yanada mustahkam bo‘lishida har bir pedagog o‘z hissasini qo‘shishi kerak deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". "O'zbekiston" nashriyoti, 2016-yil.
2. Sayidova N.S., Bayasgalan Z., Abdullayeva M.S. *Creating a base of test questions in the field of computer graphics using ispring quizmaker software. Buxoro davlat universiteti Pedagogik akmeologiya. Xalqaro ilmiy-metodik jurnali. - Buxoro, 2023. – № 1(3) son. 6 fevral, -B. 164-173. ISSN 2181-3787, E-ISSN 2181-3795.*
3. Sayidova N.S., Sharipova F.P. *Ispring tizimida ximiya fanidan virtual laboratoriya yaratish bo'yicha elektron uslubiy qo'llanma. 550 MB Elektron ko'rinishda mavjud. 2018 yil.*
4. Sayidova N.S., Xudayberdiyeva N. U. *Ispring tizimida fizika fanidan virtual laboratoriya yaratish bo'yicha elektron uslubiy qo'llanma. 482 MB Elektron ko'rinishda mavjud. 2018 yil.*
5. <http://www.ispringsolutions.com>
6. <https://fayllar.org/download/mavzu-i-spring-dasturi-haqida-malumot.doc>
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/03/20/prezident-yoshlar/>
8. [https://kun.uz/uz/news/2019/03/20/prezident-beshta-muhim-tashabbusni-ilm-gari-surdi-ular-nima.](https://kun.uz/uz/news/2019/03/20/prezident-beshta-muhim-tashabbusni-ilm-gari-surdi-ular-nima)